



QADIMGI VA O'RTA ASRLAR XIVA ME'MORCHILIGI XUSUSIDA

Rajabov Ibratjon Ibrohim o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadim va o'rta asrlarda Xivaning me'morchiligi, uning o'ziga xos xususiyatlari tarixi haqida so'z boradi. Xivaning me'morchiligi rang-barang bo'lib, Qadimgi Sharq me'morchiligining nodir namunlarini o'zida aks ettirgan.

Kalit so'zlar: Xiva, Xeyvaq, Istahriy, Gurganch, Hazorasp, Terenojkin, G'ulomov, Tolstov, Polvonyop, Ichan qal'a, Dishan qal'a, Xiva me'morchiligi.

O'zbekistonning qadim shaharlaridan biri Xiva hisoblanib, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar miloddan avval V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudugi bilan bog'liq. Ba'zi tadqiqotchilar shahar nomini xorazmiy tiliga yaqin bo'lgan qadimgi osetin tilidagi "Xiauv" - qal'a so'zidan, boshqalari bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o'tgan Xeykaniq kanalining o'zgartirilgan (Xeykaniq-Xeyvaniq-Xeyvaq-Xeva-Xiva) nomidan kelib chiqqan deyilar.

Xorazmlik tarixchi solnomachi Xudoyberdi Qo'shmuhammad o'zining 1831-yilda yozgan "Dili G'aroyib" asarida Xorazmning qadimiy shaharlarini nomma-nom sanar ekan, "bu mamlakatning yana bir qal'asi - Qal'ai Ramldir. Bu qal'aga Som ibn Nuh asos solgan bo'lib, u hozirgi Xivaq nomi ila mashhurdir" deydi.

Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi. Bunda Nuhning o'g'li Som bo'lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solgan. Haqiqatan ham Xivaning Ichan qal'asida qadimiy Xeyvaq (Xivak) qudug'i saqlanib qolgan[To'pchiyev U. 2024. 108-111-b.].

Xiva haqidagi dastlabki ishonchli ma'lumotlar X asrdan boshlab arab va fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi. Istaxriy Xivani o'sha davrdagi eng yirik 30 ta shahar ro'yxatiga kiritgan. U Xivani Hazoraspdan 8 farsax masofada



Jurjoniya (Gurganj) yo'lida joylashganligini qayd qiladi. Muqaddasiyning ma'lumotlariga ko'ra esa Xiva bilan Hazorasp o'rtasidagi masofa 8 dovon (10 farsax)dan iborat bo'lgan. Xiva Yoqut Xamaviy (XIII asr), Nizomiddin Shomiy (XIV asr) asarlarida ham karvon yo'lida joylashgan shahar sifatida eslatib o'tiladi.

Xiva o'zining tarixiy o'tmishi, me'moriy tuzilishi, obidalarining yaxlit saqlanganligi jihatidan mazkur qad. shaharlar orasida alohida o'rin tutadi. Yer kurrasida mashhur bo'lgan Qohira shahriga tengdosh bo'lgan bu shaharning Ichan Qal'a qismi (1990) Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan 100 shahar bo'lib, dunyoga al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon (Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan azim zamin hisoblanadi[Davletov S., 2022. 37-38-b.].

Xivaning siyosiy tarixiga qisqacha to'xtalsak, miloddan avvalgi V asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Ahamoniylar davlati tasarrufida, so'ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda Xiva orqali Sharqni G'arb bilan bog'lovchi Buyuk ipak yo'li o'tgan. IV asr boshlaridan Xiva - Xorazm bilan birga Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u qal'a devori bilan o'rab olingan.

O'rta asrlar davrida, jumladan, 712-yil Xivani arablar istilo qilgan. Arab sayyohlari Istaxriy va Muqaddasiy qo'lyozmalarida keltirilishicha, Xiva X asrda Xorazm vohasida eng yirik shaharlardan biri bo'lgan. 1221-yildan mo'g'ullar imperiyasi, 1388-yildan temuriylar davlati tarkibida, XVI asr boshlaridan 1920-yil 2-fevralgacha Xiva xonligi poytaxti bo'lgan. Xonlik 1873-yil rus qo'shinlari tomonidan zabt qilinib, Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantirilgan. 1920-24-yillarda Xiva Xorazm Xalq Sovet Respublikasi poytaxti bo'lib turgan[www.wikipedia.org. internet sayti].

Xivani arxeologik jihatdan o'rganish qisman S.P.Tolstov, Yahyo G'ulomov, A.I.Terenojkin va boshqa tomonidan XX asr o'rtalarigacha olib borilgan. 1984-1993-yillarda arxeologik kazishma ishlari rejali ravishda keng miqyosda olib borildi. Qazishmalar O'zbekiston Fanlar Akademiasi Qoraqalpog'iston bo'limi arxeologlari va



xorazmlik arxeologlar hamkorligida amalga oshiridi. Shahar hududida 6 ta stratigrafik qazilma va 7 shurf belgilandi.

Xivaning qadimiy qismi - Ichan Qal'ada 1200 m² bo'lgan maydon qazib o'rganildi. Arxeologik ashyolarning 7 metrgacha chuqurlikdan topilganligi, shaharning paydo bo'lish davri qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Shahar tarixiy taraqqiyotining ilk davrida Ichan qal'a o'rnida odamlar yashay boshlagan. Arxeologik materiallarning shahodaticha, bu davr miloddan avval V asrga to'g'ri keladi. Kulolchilik charxida tayyorlangan sopol buyumlar majmuasi, shuningdek, paxsa devor qoldiqlari shu davrga mansub[To'pchiyev U. 2024. 108-11-b.]. Miloddan avvalgi V asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan xalos bo'lgach, Xivada shahar sistemasining asosiy elementlari shakllana boshladi.

Miloddan avvalgi IV-III asrlarda qal'a atrofi 2 qavatli qalin devor bilan o'rab olindi. Devor oldin paxsa, uning ustiga xom g'isht terilib, bunyod etilgan. G'ishtlarning aksariyatiga tamg'a bosilgan. Devor orasida (ichida) eni 2 m li yo'lak bo'lgan. Devor bo'ylab, har 22-27 m masofada minoralar tiklangan. Devordagi minoralar to'g'ri burchakli bo'lgan. Qal'a devorining butun tizimi asosiy devordan 4,4-8,5 m masofadagi qo'shimcha to'siq - devor bilan o'rab chiqilgan. Devor ichi va yo'laklardan topilgan sopol buyumlar miloddan avvalgi IV-III asrlarga taalluqli[Zohidov S. 1998. 42-45-b.]. Bo'yin qismi ingichka, nozik kilib ishlangan xum va xumchalarning sirtiga och pushti rangda gul naqshi solingan. Yana bir nodir topilma-ko'zachaning sher kallasi shaklidagi dastasidir. Qadimiy qal'a devori va yo'laklar Xiva o'sha davrda vohada yirik shaharlardan biri sifatida Xeykaniq (Polvonyop) kanali sohillari hamda sohilga yaqin hududlarni nazorat qilib turganligini tasdiqlovchi dalildir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xiva XVI asrning 2-yarmidan Xorazmning poytaxtiga aylangach, har tomonlama rivojlandi. Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. Shahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2 ta katta ko'cha va 4 darvoza (Ota, Polvon, Bog'cha, Tosh) orqali Dishan Qal'a (rabod) ga chiqiladi. Ichan Qal'a devorining uzunligi 2200 metr, balandligi 6-8 metr, tag zaminining qalinligi 5-6 metr. Qal'a to'g'ri



to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, jami 26 gektar maydonga ega [O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari, majmua, 2011. 61-62-b.].

Xivanning rabod qismi Dishan Qal'a 1842-yil Olloqulixon davrida (1825-1842) baland devor bilan o'rab olingan. O'sha davrda Ichan qal'ada 33 mahalla va Dishan Qal'ada 34 mahalla bo'lgan. Mahallalar nomi shu yerda yashayotgan aholining kasbkori yoki shaxs lavozimi bilan atalgan. Shaharda 109 katta kichik ko'cha, 79 masjid va 120 qorixona bo'lgan. Xivada XIX asr o'rtalarida 20 ming kishi yashagan. Shahar, asosan, XIX asrning 2-yarmidan kengaya bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletov S., Abdullayev M. O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari tarixi. Toshkent. 2022.
2. To'pchiyev U. S. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. Jizzax. 2024.
3. Zoxidov P.Sh. Me'mor olami. Toshkent. 1998.
4. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari – Vatanimiz tarixini o'rganishning moddiy manbalari (majmua). Samarqand. 2011.
5. www.wikipedia.org. internet sayti